



FARIDA AFRUZ IJODIDA OKKOZIONAL BIRLIKLARNING VERBALLASHUVI

Usmanova Zilola Husanboy qizi

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

2-bosqich talabasi

Ibragimova Iroda Artikmashrbovna

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

Katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining betakror shoirasi Farida Afruz ijodidagi lisoniy yangillanishlar, okkozional birliklarning verballashuv jarayonlari lingvopoetik jihatidan tadqiq etiladi. Izlanish natijasi sifatida shoiraning "Tasbih" she'riy turkumi hamda "o'sha kun bugundir" to'plami tanlab olingan bo'lib, undagi okkozional birliklarining sematik strukturasi tahlilga tortilgan. Shoira tomonidan verballashtirilgan yangi birliklarning lirik qahramon ruhiyatini yoritishdagi funksional vazifalari she'riy misollar orqali ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Okkozionalizm, verballashuv, "Tasbih" she'riy turkumi, "o'sha kun bugundir" to'plami.

Kirish

Bugungi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunoslik markazida badiiy nutqning lisoniy xususiyatini o'rganish, ijodkorning individual-uslubiy imkoniyatlarini kashf etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Har bir chinakam is'tedod sohibi tilning mavjud imkoniyatlaridan tayyor foydalanish bilan birga, uning yashirin imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga, yangi ma'no qirralarini yaratishga intiladi. Bu borada mahoratli shoira Farida Afruz she'riyati majozlar olami va okkozional birliklarning zichligi bilan alohida ajralib turadi.

Shoira ijodida tushunchalarning verballashuvi – ya'ni mavhum g'oyaning yangi lisoniy qolipga kelishi shunchaki estetik bezak emas balki tilning ichki xususiyatini yuzaga chiqarish jarayonidir. Farida Afruz an'anaviy lisoniy shakllarni inkor etmagan holatda, ularni o'zining poetik tafakkuri asosida qayta shakllantiradi. Bu jarayon kitobxonga mavjud bo'lmagan, ammo lirik matn talab qiladigan yangi bog'lanishlarni hosil qiladi. Shoiraning so'zdan foydalanish mahorati aynan tildagi turg'unlikni harakatga keltirishdagi va har bir kechinma uchun maxsus "shaxsiy" nom topa olish qobiliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

"O'sha kun bugundir" va "Tasbih" asarlarida okkozionalizmlarning



verballashuvi

Farida Afruz she'riyatining lisoniy manzarasini kuzatganimizda ,an'anaviy lug'aviy birliklar lirik qahramonning murakkab ruhiy holatlarini ifodalashda yetarli bo'lmagan o'rinlarda individual-mualliflik okkozionalizmlari faollashganini ko'ramiz. Shoiri ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zni qo'shish yoki tildagi affikslarni noodatiy qo'llash orqali yangi mazmun qirralarini yaratadi. Masalan, shoira sog'inch va ayriliq mavzusidagi falsafiy qarashlari aks etgan quyidagi misralarni kuzatish mumkin.

*“Sog'inchrang ufqlar bag'rida qoldim,
Ruhimning isyonkor shiviri –besas.
Dardimni ko'ksimga qamab, yo'loldim,
O'zimning bemenlik olamiga, bas...”*

Ushbu to'rtlikda shoira tomonidan qo'llangan “sog'inchrang” va “bemenlik” birliklari sof okkozional so'zning namunasi. “Sog'inchrang” tushunchasi rang bilan ifodlanish natijasida “sog'inchrang” sifati hosil bo'lgan. Bu birlik lirik qahramonning ichki dunyosidagi mahzunlikni ochib berishga xizmat qilgan. “Bemenlik” so'zi esa insonning o'zligidan kechishi dunyoviy “men”dan voz kechib sukunatga erishish holatini verballashtirgan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, bu yerda –lik affiksi yordamida yangi mavhum ot yasalgan bo'lib u faqatgina Farida Afruz she'riyatida o'zining to'liq estetik qiymatini namoyon etadi.

Yana bir misolida shoira insonning ichki kechinmalarini tabiat hodisalari bilan parallel ravishda yangicha talqin qilganini ko'rishimiz mumkin:

*“Yuragimning ostida uyg'ongan titroq,
Betôlgoq*

tug'ilgan she'rga aylandi.

*Sukunat bag'rida qolgan bu
chiroq,*

Beunlik qa'ridan sado izladi...”

Ushbu baytlarda uchraydigan “beto'lg'oq” va “beunlik” okkozionalizmlari ham e'tiborga molik

Shoiri she'r tug'ilish jarayonini biologik hodisaga qiyoslar ekan, uning “to'lg'oqsiz” (ogriqsiz, ammo kutilmagan) ekanligini ta'kidlash uchun “betôlgoq” sifatini yaratadi. Bu birlik she'riy matnning emotsional-ekspressiv bóyo'g'ini maksimal darajada oshiradi. “Beunlik” so'zi esa “sukunat” tushunchasining yanada chuqurlashgan, mualliflik talqini bilan boyitilgan shaklidir.

Xulosa

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Farida Afruz ijodida okkazional



birliklarning verballashuvi shoironing individual-uslubiy o‘ziga xosligini ta’minlovchi, uning so‘z san’atkori sifatidagi mahoratini ko‘rsatuvchi yetakchi omildir. Shoiralar yaratgan "shaxsiy lug‘at" shunchaki tilni bezash emas, balki zamonaviy insonning murakkab va ziddiyatli ichki olamini ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida quyidagi ilmiy fikrlarni ta’kidlashim lozim:

“Tasbih” va “o‘sha kun bugundir” asarlari misolida ko‘rildiki, okkazionalizmlar lirik qahramonning ruhiy evrilishlarini eng aniq va ta’sirli tarzda yetkazuvchi asosiy vositadir.

Mualliflik neologizmlari matn ichida yangicha semantik yuk ortib, tildagi tayyor qoliplarni yangilashga va o‘zbek she’riyatining lingvopoetik manzarasini intellektual jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Farida Afruzning so‘z ijodkorligi o‘zbek tilining boy derivatsiya imkoniyatlarini amalda namoyish etuvchi muhim lingvokreativ hodisa bo‘lib, tilshunoslikda individual uslub masalalarini o‘rganishda yangi ufqlar ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Farida Afruz. "o‘sha kun bugundir" (she’riy to‘plam). – Toshkent: Sharq, 2011.
2. Farida Afruz. "Tasbih" (she’riy turkum). – Toshkent: Adabiyot, 2018.
3. YO‘ldoshev Q. "Yangi o‘zbek she’riyati tamoyillari". – Toshkent: Akademnashr, 2015.
4. Rasulov R. "o‘zbek tili lingvistikasi: nazariya va tahlil". – Toshkent, 2013.